

FARG'ONA VILOYAT MEHNAT BOZORINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Mirzayeva Odina Imomnazar qizi

Alfraganus Universitet nodavlat oliy talim tashkiloti,
Iqtisodiyot fakulteti “moliya” kafedrasining o'qituvchisi

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti, mustaqil
tadqiqotchisi

mirzayevaodina@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Farg'ona viloyat mehnat bozorining rivojlanishidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganishga bag'ishlangan. Mehnat bozoridagi tendentsiyalarni tahlil qilish va prognozlash uchun statistik usullarning ahamiyati tobora ortib borayotgan bir paytda, bu mavzu dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, O'zbekiston mehnat bozorining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalari tahlil qilinadi. Xususan, mehnat resurslarining soni va tarkibi, ish bilan bandlik va ishsizlik darajasi, ish haqi dinamikasi kabi muhim ko'rsatkichlarni yanada aniqroq hisoblash usullari taklif etiladi. Tadqiqot natijalarida viloyat mehnat bozorining rivojlanishidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yechimlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Gender tengsizligi, mehnat bozori statistikasi, migratsiya va “miya qochish, ish bilan bandlik, ishsizlik, ish haqi, mehnat resurslari, ekonometrik.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению основных проблем развития рынка труда Ферганской области и путей их преодоления. Эта тема приобретает все большую актуальность в связи с растущим значением статистических методов анализа и прогнозирования тенденций на рынке труда. Также будут проанализированы особенности и тенденции развития рынка труда Узбекистана. В частности, предлагаются более точные методы расчета таких важных показателей, как количество и состав трудовых ресурсов, уровень занятости и безработицы, динамика заработной платы. В результатах исследования представлены основные проблемы развития рынка труда региона и решения по их преодолению.

Ключевые слова: *Гендерное неравенство, статистика рынка труда, миграция и “утечка мозгов”, занятость, безработица, заработная плата, трудовые ресурсы, эконометрика.*

ABSTRACT

This article is devoted to the study of the main problems in the development of the Fergana regional labor market and ways to eliminate them. At a time when the importance of statistical methods for analyzing and forecasting trends in the labor market is growing, this topic is gaining relevance. Also, the specifics and development trends of the labor market of Uzbekistan are analyzed. In particular, more accurate methods of calculating such important indicators as the number and composition of labor resources, the level of employment and unemployment, the dynamics of wages are proposed. In the results of the study, the main problems in the development of the regional labor market and solutions for their elimination are presented.

Keywords: *Gender inequality, labor market Statistics, migration and brain escape, employment, unemployment, wages, labor resources, econometrics.*

KIRISH

Mehnat bozorining rivojlanishidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini yaratishda miqdoriy jihatdan tavsiflash va tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. U mehnat resurslari, ish bilan bandlik, ishsizlik, ish haqi va mehnat sharoitlari kabi ko'plab muhim ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Bu ko'rsatkichlar orqali mehnat bozoridagi joriy holat va rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash, muammolarni o'z vaqtida aniqlash va tegishli choralar ko'rish mumkin bo'ladi.

Farg'ona viloyati — O'zbekistonning eng zich aholi yashaydigan va iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri. Biroq, aholining tez o'sishi, iqtisodiy tarkibning noyobliligi va mehnat bozoridagi strukturaviy muammolar viloyat mehnat resurslaridan samarali foydalanishga to'siq bo'lib kelmoqda[1]. Maqolada Farg'ona viloyati mehnat bozoridagi asosiy muammolar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehnat bozorining rivojlanishidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida Ehrenberg [2] ning "Zamonaviy mehnat iqtisodiyoti: nazariya va davlat siyosati" asarini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu kitobda mehnat bozori statistikasining asosiy tushunchalari, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari batafsil yoritilgan. Mualliflar tomonidan ish bilan bandlik va ishsizlik darajasini aniqlash, ish haqi statistikasi kabi masalalarni chuqur tahlil qilgan.

O'zbekistonda mehnat bozori statistikasining rivojlanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari Abdurahmonov va Zokirova [3] tomonidan o'rganilgan. Ularning "O'zbekiston mehnat bozori: shakllanishi, rivojlanishi va tartibga solish" nomli monografiyasida mehnat bozori statistikasining milliy tizimi, uning xalqaro

standartlarga moslashuvi va takomillashtirish viloyatlar kesimida ham ko'rsatib o'tilgan.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan nashr etilgan "Mehnat statistikasi bo'yicha so'nggi xalqaro standartlar to'plami" [4] mehnat bozori statistikasini yuritishning xalqaro me'yorlarini belgilab beradi. Ushbu to'plamda ish bilan bandlik, ishsizlik, to'liq bo'lmagan bandlik, ish vaqti, ish haqi va mehnat xarajatlari kabi asosiy tushunchalarning ta'riflari va ularni o'lchash usullari keltirilgan.

Zamonaviy mehnat bozori tendentsiyalari va ularni statistik o'rganish masalalari Autor [5] ning "Mehnat bozori polarizatsiyasi: dalillar, sabablar va oqibatlar" nomli maqolasida chuqur tahlil qilingan. Muallifning fikricha, texnologik o'zgarishlar va globallashuv natijasida mehnat bozorida "o'rta malakali" kasblarning qisqarishi va yuqori hamda past malakali kasblarga bo'lgan talabning ortishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar va ularni statistik baholash masalalari Abulqosimov [6] tomonidan o'rganilgan. Muallif tomonidan norasmiy bandlik, yoshlar ishsizligi va mehnat migratsiyasi kabi dolzarb muammolarni statistik tahlil qilish usullarini taklif etganlar va bu takliflarda viloyatlarda bu takliflarni qo'llash samara berishi aytib o'tilgan.

Raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri va uni hududlar keisimida ta'siri Brynjolfsson va McAfee [7] ning "Ikkinchi mashina asri: ish, progress va farovonlik texnologiyalar gullab-yashnagan davrda" kitobida keng yoritilgan. Mualliflar sun'iy intellekt va robototexnikaning rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi kasblar va ko'nikmalarni statistik kuzatish zarurligini ta'kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mehnat bozorining rivojlanishidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari qo'llanildi. Quyida asosiy metodologik yondashuvlar va ma'lumotlar manbalari keltirilgan. Tadqiqotda quyidagi statistik tahlil usullari qo'llanildi:

- Dinamika qatorlarini tahlil qilish
- Korrelyatsion-regression tahlil
- Indeks usuli
- Guruhlash usuli
- Ekstrapolyatsiya va prognozlash usullari

Ekonometrik modellashtirish jarayoni- mehnat bozori ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganish va prognoz qilish uchun ekonometrik modellar tuzildi. Xususan, ko'p omilli regression modellar va vaqtli qatorlar modellari (ARIMA) qo'llanildi.

Qiyosiy tahlil jarayoni -O'zbekiston mehnat bozori ko'rsatkichlarini boshqa mamlakatlar, xususan MDH davlatlari va rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali qiyosiy tahlil o'tkazildi.

Ekspert baholash usuli- Ayrim sifat ko'rsatkichlarini baholash va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash uchun mehnat bozori mutaxassislari va olimlar bilan ekspert so'rovlari o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning eng zich aholi yashaydigan va iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri Farg'ona viloyati hisoblanadi. Biroq, aholining tez o'sishi, iqtisodiy tarkibning noyobligi va mehnat bozoridagi strukturaviy muammolar viloyat mehnat resurslaridan samarali foydalanishga to'siq bo'lib kelmoqda.

Aholining ko'payishi va ish o'rinlarining yetishmasligi

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona viloyatida aholi soni 2023-yil holatiga ko'ra 3,8 million ni tashkil etadi, bu O'zbekiston umumiy aholisining ~11% hisoblanadi. Viloyatda yillik aholi o'sishi 1,5% atrofida bo'lib, har yili 50 mingga yaqin yangi ish qidiruvchilar mehnat bozoriga qo'shilmoqda. Biroq, rasmiy statistikaga ko'ra, viloyatda yaratiladigan yangi ish o'rinlari soni yiliga 20-25 mingni tashkil etadi. Bu holat ishsizlik darajasini 9,5% (milliy o'rtacha 8%) ga yetkazadi, ayniqsa yoshlar orasida bu ko'rsatkich 18% ga yaqin[7].

Malakali kadrlar yetishmovchiligi va kasbiy ta'limning zaifligi

Viloyatda mehnat bozorining asosiy paradoksi — bir tomondan ishsizlik, ikkinchi tomondan sanoat korxonalarida malakali ishchilar yetishmovchiligi. O'zbekiston Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatdagi mehnatga layoqatli aholining faqat 35% oliy yoki o'rta maxsus ta'limga ega. Texnik kasb-hunar kollejarida o'quv dasturlari zamonaviy bozor ehtiyojlariga mos kelmaydi. Masalan, IT, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida malakali mutaxassislar yetishmovchiligi kuzatilmoqda.

Ta'lim darajasi va mehnat bozori talablari quyidagi 1-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

1-jadval.

Ta'lim darajasi va mehnat bozori talablari


N	Nomi	Ko'rsatkich (%)
1	Oliy/o'rta maxsus ta'limga ega	35
2	Zamonaviy kasblar(IT,Qurilish)bo'yicha ma'lakali kadrlar	15
3	Kasb ta'limi bitiruvchilari	25

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat milliy statistika qo'mitasi¹ [8]

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

Diagramma 1.

Ta'lim darajasi va sanoat talablari



Mutaxassis va mavjud kasbdagilarning bir biriga qarama qarshi ravishda rivojlangan ya'ni Masalan;IT-soahsiga talab 10% tashkil etadi desak, ammo mutaxassislar esa 3% ni tashkil etadi. Bu mavjud muammolarni yechimi sifatida quydagi takliflarni keltirish mumkun:


- Kasb-hunar ta'limini ish beruvchilar bilan hamkorlikda yangilash (dual ta'lim tizimi).

Norasmiy bandlik va ijtimoiy kafolatlarning yo'qligi darajasi yuqori bo'lgan Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli aholining 40% ga yaqini qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida norasmiy sharoitda ishlaydi. Ushbu xodimlarning mehnat huquqlari (pensiya, kasallik davolari, ish haqi kafolati) himoyasiz qolishiga olib keladi. Xususan, ayollar orasida norasmiy bandlik darajasi 55% ni tashkil etadi[9].

Farg'ona viloyatida norasmiy bandlikning sohalar bo'yicha taqsimoti quyidagi 2-diagrammada ko'rsatib o'tilgan.

2-diagramma

Farg'ona viloyatida norasmiy bandlikning sohalar bo'yicha taqsimoti



Ish haqi darajasi tarmoqlar va hududlar bo'yicha sezilarli farq qiladi. Eng yuqori ish haqi moliya va sug'urta faoliyati, axborot va aloqa, tog'-kon sanoati kabi sohalarda kuzatiladi.

Farg'ona viloyatida Gender tengsizligi va ayollar faolligining pastligi mavjud bo'lib ,viloyatda ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki 48% ni tashkil etsada, ularning ko'p qismi kam maoshli va past malakali ishlarda band. Ayollar uchun bolalar parvarishi muassasalari yetishmasligi va gender stereotiplar ularning faolligini cheklaydi.Bu ayollarni o'z ustida ishlashga va kareriyaga qilish imkoniyatini cheklaydi.*Masalan:*ayollarda ish haqi 2.5 million so'm,erkaklarda esa 4.2 million so'mni tashkil etadi[10].

Aholi sonining yildan yilga o'sib borishi mamlakat chidagi migratsiya jarayonini o'sishiga olib kelmoqda.Na'tijada ishsizlik tufayli viloyat aholisining bir qismi Toshkent, Samarqand yoki chet el (Rossiya, Qozog'iston) mamlakatlariga ko'chib ketmoqda. Bu holat mahalliy iqtisodiyotda malakali kadrlar yetishmovchiligini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Farg'ona viloyat mehnat bozorining rivojlanishidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinib quyidagi xulosalarga kelindi:

Mehnat resurslari soni muntazam o'sib bormoqda, biroq o'sish sur'atlari pasayish tendensiyasiga ega. Aholining iqtisodiy faollik darajasi va bandlik darajasi 2020-2015-yillarda yuqori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan,

O'rtacha oylik ish haqi nominal jihatdan sezilarli darajada o'sgan, biroq tarmoqlar va hududlar kesimida katta tafovutlar mavjud. Ishsizlik darajasi, ayniqsa yoshlar va ayollar o'rtasida yuqori darajada qolmoqda.

Norasmiy bandlik darajasi yuqori bo'lib, bu mehnat bozori statistikasining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mehnat bozori tuzilishini o'zgartirmoqda. Mehnat unumdorligi o'sish tendensiyasiga ega, biroq rivojlangan mamlakatlar darajasidan orqada qolmoqda. Aholining ko'payishi va ish o'rinlarining yetishmasligini quyidagi yechimlarni keltirishimiz mumkin:

- Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlarini yaratish (masalan, soliq imtiyozlari va subsidiyalar).

- Qishloq xo'jaligidan tashqari to'qimachilik, oziq-ovqat va yengil sanoat sohalariga investitsiyalarni jalb qilish.

- Infratuzilma loyihalarini (yo'l, elektr, internet) rivojlantirish, yangi korxonalar uchun shart-sharoit yaratish.

Malakali kadrlar yetishmovchiligi va kasbiy ta'limning zaifligiga hamda norasmiy bandlik uchun yechim sifatida:

Kasb-hunar ta'limini ish beruvchilar bilan hamkorlikda yangilash (dual ta'lim tizimi).

- Zamonaviy kasblar (dizayn, dasturlash, turizm) bo'yicha qisqa muddatli kurslarni joriy etish.

- Talabalarni amaliyot uchun xorijiy va mahalliy kompaniyalarga yo'naltirish.

- Norasmiy korxonalarni ro'yxatga olish uchun soliq imtiyozlari va jarimalarni muvozanatlash.

- Ayollar uchun uyda ishlash va masofadan turib ishlash imkoniyatlarini kengaytirish.

- Ijtimoiy himoya dasturlarini norasmiy ishchilarni qamrab olishi uchun isloh qilish.

Gender tengsizligi va mamlakat ichidagi migratsiya jarayonida quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

Bolalar bog'chalari va qo'shimcha ta'lim markazlarini ko'paytirish.

- Ayollar uchun startap loyihalari va mikroqarzar dasturlarini ishlab chiqish.

- Gender tengligi bo'yicha ommaviy axborot kampaniyalarini olib borish.

- Mahalliy korxonalar uchun maosh darajasini ko'tarish va ijtimoiy paketlarni taklif qilish.

- Yosh mutaxassislarni qo'llab quvvatlash.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi viloyat mehnat bozorining rivojlanishidagi asosiy muammolarini bartaraf etishilishiga olib keladi hamda aholining bandligi va farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston raqamlarda 2022. Toshkent.
2. Mustafakulov, O. K. (2024). STATISTIKA TIZIMIDA RAQAMLI PLATFORMALARNI AMALIY TADBIQ ETISH METODOLOGIYASI. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 4(1), 45-54.
3. Ehrenberg, R. G., & Smith, R. S. (2018). Modern labor economics: Theory and public policy (13th ed.). New York: Routledge.
4. Abdurahmonov, Q. X., & Zokirova, N. Q. (2019). O'zbekiston mehnat bozori: shakllanishi, rivojlanishi va tartibga solish. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Wooldridge, J. M. (2020). Introductory econometrics: A modern approach (7th ed.). Boston: Cengage Learning.
6. International Labour Organization. (2013). Resolution concerning statistics of work, employment and labour underutilization. 19th International Conference of Labour Statisticians. Geneva: ILO.
7. Autor, D. H. (2015). Why are there still so many jobs? The history and future of workplace automation. *Journal of Economic Perspectives*, 29(3), 3-30.
8. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies. New York: W. W. Norton & Company.
9. Stiglitz, J. E., Sen, A., & Fitoussi, J. P. (2009). Report by the commission on the measurement of economic performance and social progress. Paris: Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Mehnat bozori, <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>